

O'QUV STRATEGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Pulatova Muattar Kurakboyevna,

Samarqand viloyati, O'zbekiston.

muattarkurakboyevna@gmail.com.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21157860>

Annotasiya: mazkur maqolada o'quv strategiyalarining didaktik imkoniyatlari, pedagogik-psixologik xususiyatlari, kognitiv o'rganish, metakognitiv o'rganish haqida yangi yondashuvlarni rivojlantirish, o'quv strategiyalarini shaxs o'rganish usullariga tayanilgan holda o'rgatish masalalri yuzasidan fikrlar berilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются дидактические возможности учебных стратегий, их педагогико-психологические особенности, а также вопросы развития новых подходов в области когнитивного и метакогнитивного обучения. Особое внимание уделяется обучению учебным стратегиям на основе индивидуальных способов познания обучающихся.

Abstract: This article examines the didactic potential of learning strategies, their pedagogical and psychological characteristics, as well as the development of new approaches in cognitive and metacognitive learning. Particular attention is given to teaching learning strategies based on learners' individual learning styles.

Kalit so'zlar: kognitiv o'rganish, metakognitiv o'rganish, motiv, aniq rejali faoliyatni tashkil etish, o'quvchilarning fiziologik, psixologik, intellektual, madaniy imkoniyatlari, ehtiyojlari, xususiyatlari.

Ключевые слова: когнитивное обучение, метакогнитивное обучение, мотив, организация целенаправленной плановой деятельности, физиологические, психологические, интеллектуальные и культурные возможности, потребности и особенности учащихся.

Keywords: *cognitive learning, metacognitive learning, motivation, organization of purposeful planned activity, students' physiological, psychological, intellectual, and cultural capacities, needs, and characteristics.*

Kirish. Hozirgi zamonaviy hayot va ta'lim imkoniyatlari shaxsning barkamollik xususiyatlari indikatorlarini takomillashtirmoqda. Jamiyat hamda maktab ta'limi bitiruvchilardan har tamonlama shakllanganlik kompetensiya komponentlarini strategik tafakkur indikatorlari vositasida mustahkamlashni kutmoqda. Ma'lumotlar juda tez vaqtda eskirib, qadrsizlanayotgan hozirgi davr uni tez fursatda o'rganish, o'z vaqtida malakali foydalanishni zaruratini keltirib chiqardi.

Shuningdek, ta'lim mazmunini takomillashtirib borish orqali o'quvchidan qisqa davrda tegishli ma'lumotlarni qayta ishlash, tezroq o'rganish hamda jarayonda samarali foydalanishni kutadi [3:39-b.]. Ushbu dolzarblik o'quv strategiyalarini ishlab chiqish va takomillashtirishni taqazo etadi. Bu esa, ta'lim vositalarini o'quv strategiyalari bilan boyitishning ijobiy imkoniyatlarini namoyon qiladi.

O'quvchilarning o'quv strategiyalarini o'rganishi "o'rganish usullari"ga asoslanadi. Yangi bilimni o'rganish o'quvchining o'rganish usullari, idrok kanallari faoliyati asosida sodir bo'ladi. Shu sababdan, o'quv strategiyalarini o'quvchilarga o'rgatish shaxsning o'rganish usullariga asoslanadi. Shaxsning asosiy o'rganish usullari asosan:

1. Kognitiv o'rganish usuli
2. Motivatsion o'rganish usuli
3. Muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlashni o'rganish usuli [1;52-b].

O'quv strategiyalarini kognitiv o'rganish usuli. Kognitiv o'rganish usuli didaktik "qolip"lar bo'lib, yangi axborotni oldingi bilim yoki tushuncha bilan bog'laydi.

Kognitiv o'rganish – o'quvchining intellektual o'rganish asosini tashkil qilib, o'quv sttrattegiyalarini o'rganishning affektiv, jismoniy, madaniy, ijtimoy ehtiyojlari bilan bog'liq. O'quv strategiyalarini kognitiv o'rganish o'quvchilarning

strategiyalarni idrok etish, tushunishini ta'minlaydi. Keyin navbatdagi bosqich hisoblangan metakognitiv o'rganishga aylanadi. Metakognitiv o'rganish – ta'lim oluvchi o'zining o'rganish jarayoni natijalarini tahlil qilishiga asoslanadi. Metokognitsiya o'quvchilar o'quv strategiyalarini mustaqil ta'limda, firklash jarayonlarida qo'llashini nazarda tutadi. Olim H.Borochning mulohazalariga ko'ra, "o'quvchi o'quv jarayonini nazorat qilayotganini his qilganda, unga o'rgatsih, o'zini sinab ko'rishga yo'naltirish osonroq bo'ladi" [1; 54-b.].

O'quv strategiyalarini motivatsion o'rganish usuli. Motivatsiyaning o'quv strategiyalarini o'rgatish jarayonidagi muhim jihatlarini aniqlashtiradi, vositalarini o'rgatadi. G.Svinikining [4;23-b.] fikrga ko'ra o'quvchilar o'zlarining samarali o'rganish usullarini yaxshi tushunishi ularning motivatsiyasini oshiradi. Motivatsion o'quv usuliga asoslanib o'quvchilarni o'quv startegiyalariga o'rgatish maqsadga muvofiq rejaga olib boradi. O'quvchi qanday maqsadga intilayotganini ongli bilsa, bu maqsad o'zi uchun shaxsan muhim ekanligini tushunsa aynan ushbu maqsadga erishish uchun yaxshiroq ishlaydi [1;54-b.]. O'quvchida muayyan akademik maqsadni belgilaganda to'liq mas'uliyat motivlardan kelib chiqadi. Motivlar aniq rejali faoliyatni tashkil etish kerak degan tushunchani shakllantiradi. Natijada, o'quv startegiyasi shakllanadi. Motivlar stabilligi jarayon samarasini ta'minlaydi.

O'quv strategiyalarini muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlashni o'rganish usuli. Mazkur vositalarning zarurati, imkoniyatlari, xususiyatlarini tanqidiy anglagan holda o'rganishni ta'minlaydi.

O'qituvchilarning o'quvchilarni o'quv strategiyalariga o'rgatish ko'nikmasi pedagogik jihatdan muhim bo'lib, strategiyalarning kognitiv imkoniyatlari o'rganishni o'rgatishni belgilaydi. O'quvchilarni o'quv strategiyalariga o'rgatishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini belgilashda strategiyalarni o'rganish usullari vositasida o'rgatish xususiyatlariga metodologik asoslanish kognitiv zarurat hisoblanadi.

O'qituvchilarda o'quvchilarni o'quv strategiyalariga o'rgatish ko'nikmalarini rivojlanirish pedagogik shart-sharoitlarini kasbiy faoliyatga integratsiyalash, o'zaro

kommunikatsiyaga kirishish, hamkorlik jarayonlarini muvofiqlashtiruvchi tizim sifatida qaraladi. o'qituvchining pedagogik faoliyatida o'quvchilarni o'quv strategiyalariga o'rgatish ko'nikmasini rivojlantirishni tizimli, mazkur yondashuv amalga oshirishni kuchaytirish orqali ta'lim samaradorligi oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boroch D., Hope, L., Smith B., Gabriner R., Mery P., Johnstone R., Asera R. Student success in community colleges (a practical guide to developmental education). United States of America: Jossey-Bass. 2010. – P. 52-54.
2. Livingston J.A. Metocognition: An Overview//psychology, Scientific research.SCIRP.2003.-13.-P.259-266.
3. Shodiyev N. Yangi pedogogik taxnologiyalar//O'quv-uslubiy qo'llanma.S., 2005. – 39 b.
4. Svinicki M.D. Learning and motivation in the postsecondary classroom.- Bolton, MA: anker publishing. 2004. –P.23